MUZRABOT

O`zbekiston— kelajagi buyuk davlat

Gazeta 1969-yil 1-iyuldan chiqa boshlagan

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi va tuman hokimligining nashri

2025-yil 14-mart
Juma № 5 (4501)

Халқ депутатлари туман Кенгаши сессияси

Халқ депутатлари Музработ тумани Кенгашининг олтинчи сессияси бўлиб ўтди.

Сессия ишига 16-Байналмилал сайлов округидан депутат Сайдали Нурмаҳматов раислик қилди.

Сессияда "Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2025 йилда аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида" 2025 йил 17 январдаги ПҚ-12-сон қарорининг тумандаги ижросини таъминлаш ҳақида" туман Ҳокимининг биринчи ўринбосари Саъдулла Холниёзов, "Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 13 декабрдаги ПҚ-438-сон қарори билан белгилаб берилган топшириқларнинг тумандаги ижроси тўғрисида" туман Ҳокимининг қишлоқ ва сув хўжалиги масалалари бўйича ўринбосари Акмал Бозоров ҳамда туман Ҳокимининг қурилиш, тўсиқларсиз муҳит яратиш, коммуникациялар, коммунал хўжалик, экологик ва кўкламзорлаштириш бўйича ўринбосари Жасур Джумаев маъруза қилдилар.

Сессияда, шунингдек, халқ депутатлари туман Кенгашининг тегишли доимий комиссиялари томонидан муҳокама этилган қуйидаги:

"Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбошимчалик билан эгаллаб олинган ер участкаларига ҳамда уларда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган ҳуқуқларни эътироф этиш тўғрисида" 2024 йил 5 августда қабул қилинган ЎРҚ-937-сон Қонунининг тумандаги ижроси тўғрисида"ги;

"Фуқаролар йиғинлари раислари сайловига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш ҳамда сайловни ташкил этишга кўмаклашувчи туман комиссияси таркибини тузиш тўғрисида"ги;

Халқ депутатлари Музработ туман Кенгашининг "Ташаббусли бюджет жараёнларини ўтказиш ҳамда молиялаштириш тартиби тўғрисидаги низомнинг ижросини таъминлаш тўғрисида" 2024 йил 21 февралдаги қарорининг 3-иловасига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида"ги;

"Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ҳудудларда юқори иқтисодий ўсиш ва аҳоли бандлигини таъминлашнинг янги тизимини йўлга қўйиш ҳамда бу борада маҳаллий ҳокимликларнинг роли ва масъулиятини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" 2024 йил 20 декабрдаги ПФ-223-сон Фармонининг 6-банди иккинчи хат боши ижроси бўйича тумандаги мавжуд захира ва имкониятлардан самарали фойдаланган ҳолда 2025 йилга мўлжалланган иқтисодий ўсишга туртки берувчи 5 тадан драйвер лойиҳаларнинг 1-босқичида Республика бюджетидан (2 та) драйвер лойиҳалар учун ажратиладиган маблағларни соҳалар кесимида бажариладиган ишлар бўйича тақсимланиши тўғрисида"ги;

Халқ депутатлари Музработ тумани Кенгашининг "Коррупцияга қарши курашиш бўйича Музработ тумани комиссиясининг Низоми ва таркибини тасдиқлаш тўғрисида"ги қарорининг 2-иловасига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида"ги;

"Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг "Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари ваколатлари, вазифалари ва функцияларининг реестрини юритиш тартиби тўғрисида" 2024 йил 26 июндаги ҚҚ-769-IV-сонли қарори ҳақида"ги;

"Халқ депутатлари Музработ тумани Кенгаши қарорлари лойиҳаларини ишлаб чиқиш ҳамда уларни ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш услубиётини тасдиқлаш тўғрисида"ги;

"Халқ депутатлари Музработ тумани Кенгашининг "Музработ тумани маҳаллий бюджетининг 2025 йил бошида шаклланган эркин қолдиқ маблағлари ҳисобидан маблағ ажратиш тўғрисида" 2025 йил 20 февралдаги қарорига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида"ги;

"Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг "Халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгашлари томонидан қонунларни кўриб чиқиш ва муҳокама қилиш тўғрисидаги намунавий низомни тасдиқлаш ҳақида" 2024 йил 11 декабрдаги ҚҚ-19-V-сон қарори ижросини таъминлаш тўғрисида"ги;

"Халқ депутатлари Музработ тумани Кенгаши депутатлари фаолияти самарадорлигини ошириш тўғрисида"ги;

"Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг "Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари сессияларида ҳудудий давлат органлари ва ташкилотлари мансабдор шахсларининг ҳисобот (ахборот)ларини эшитишнинг намунавий тартибини тасдиқлаш тўғрисида" 2025 йил 28 январдаги ҚҚ-54-V-сон қарори ижросини таъминлаш тўғрисида"ги;

"Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг "Халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгаши ҳузурида эксперт гуруҳи ташкил қилиш тўғрисида" 2025 йил 28 январдаги ҚҚ-52-V-сон қарорининг ижроси тўғрисидаги"ги;

"Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг "Халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгаши томонидан Кенгаш сўровини, маҳаллий Кенгаш депутати томонидан депутат сўровини юбориш тартибини тасдиқлаш тўғрисида" 2025 йил 28 январдаги ҚҚ-53-V-сон қарори ижросини таъминлаш ҳақида"ги масалалар ҳам кўриб чиқилди.

Сессияда муҳокама қилинган масалалар юзасидан депутатлар маърузачиларга саволлар билан мурожаат қилдилар, ўз таклиф ва мулоҳазаларини билдирдилар.

Сессияда муҳокама қилинган масалалар юзасидан қарорлар қабул қилинди.

Шу билан халқ депутатлари туман Кенгашининг олтинчи сессияси ўз ишини якунлади.

Аёл борки олам мунаввар

Аёл ва баҳор деган муқаддас каломлар бежизга ёнма-ён ёзилмайди. Биз баҳорнинг келиши ва унинг беқиёс гўзаллигини унис аёлларимизнинг гулгун чеҳраларига қараб билиб оламиз.

Аёл бир қўли билан бешикни, иккинчи қўли билан эса дунёни тебратишга қодир бўлган муҳтарама зот ҳисобланади. Шу боис, истиқлол йилларида юртимизда хотин-қизларимизга чексиз ҳурмат ва эҳтиром кўрсатилиб, уларнинг жамиятимиз ҳаётидаги иштироки тобора фаоллашиб бормоқда.

Туманимиздаги "Туркистон" тантаналар саройида ҳар бир соҳада йигитларимиз билан елкама-елка туриб, халқ учун мардонавор хизмат қилаётган музработлик фаол аёллар иштирокида 8 март – Халқаро хотин қизлар куни байрами нишонланди. Тадбир давомида ўз соҳаларидаги масъулиятни сидқидилдан адо этиб келаётган хотин-қизлар Музработ тумани Ҳокими вазифасини бажарувчи Баҳром Хидиров томонидан "Ташаккурнома" билан тақдирландилар. Санъаткорлар томонидан куйланган чиройли куй-қўшиқлар эса тадбир иштирокчиларига юқори кайфият улашди.

Музработ тумани ҳокимлиги Ахборот хизмати.

Қонун асосида

Мурожаатларга қандай талаблар қўйилади?

Мамлакатимизда аҳоли мурожаатлари билан ишлаш, уларни қийнаб келаётган муаммоларни аниқлаш ва бартараф этиш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Аммо мурожаат қилиш борасида ҳуқуқий маълумот ва ҳуқуқий маданиятнинг етишмаслиги сабабли фуқаролар томонидан такрорий мурожаатлар сони ортиб бораяпти. Ачинарлиси, мурожаатларга имзо қўймасдан, яшаш манзили тўлиқ кўрсатилмасдан, жисмоний шахснинг фамилияси (исми, отасининг исми) кўрсатилмасдан юборилаётганлиги сабабли бу аноним мурожаатларнинг кўпайишига олиб келмоқда. Ваҳоланки, мурожаатларга қўйиладиган талаблар Ўзбекистон Республикасининг "Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида"ги Қонуни талабларига асосан тартибга солинган бўлиб, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларига бир қатор талаблар қўйилади.

Хусусан, жисмоний шахснинг мурожаати:

жисмоний шахснинг фамилияси (исми, отасининг исми), унинг яшаш жойи тўғрисидаги маълумотлар кўрсатилган бўлиши керак.

Шунингдек, юридик шахснинг мурожаати:

юридик шахснинг мурожаатида юридик шахснинг тўлиқ номи, унинг жойлашган ери (почта манзили) тўғрисидаги маълумотлар кўрсатилган бўлиши керак;

давлат органининг, ташкилотнинг аниқ номи, мурожаат юборилаётган мансабдор шахснинг лавозими ва (ёки) фамилияси (исми, отасининг исми) кўрсатилган, шунингдек, мурожаатнинг моҳияти баён этилган бўлиши зарур.

Мурожаат этувчиларнинг электрон почта манзили, алоқа телефонлари ва факс рақамлари кўрсатилиши, мурожаатлар давлат тилида ва бошқа тилларда берилиши мумкин. Мурожаат этувчи жисмоний шахснинг имзоси ёки мурожаат этувчи юридик шахс ваколатли шахсининг имзоси билан тасдиқланган бўлиши лозим. Жисмоний шахснинг ёзма мурожаатини мурожаат этувчининг имзоси билан тасдиқлаш имкони бўлмаган тақдирда, бу мурожаат уни ёзиб берган шахснинг имзоси билан тасдиқланиб, унинг фамилияси (исми, отасининг исми) ҳам қўшимча равишда ёзиб қўйилиши керак.

Электрон мурожаат, белгиланган тартибда ахборот-коммуникация технологиялари воситасида берилган, шу жумладан, давлат органининг, ташкилотнинг расмий веб-сайтига жойлаштирилган мурожаат, реал вақт режимида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда берилган оғзаки мурожаатлар бундан мустасно. Почта алоқа тармоғи орқали юбориладиган мурожаатларга, мурожаат этувчиларнинг паспорт нусхаси ҳамда мурожаатнинг мазмунмоҳияти баён этилган бўлиши керак.

Мурожаат этувчиларнинг вакиллари орқали берилган мурожаатларга уларнинг ваколатларини тасдиқловчи ҳужжатлар (Ишончнома) илова қилинади. Сайёр ва оммавий қабуллар орқали келиб тушган мурожаатлар бундан мустасно. Жисмоний ва юридик шахс вакилининг ваколатини тасдиқловчи ҳужжатлар (Ишончнома) мавжуд эмаслиги сабабли мурожаатлар кўрмай қолдирилганлиги тўғрисида мурожаат қилувчи тегишли тартибда хабардор қилинади.

А.ЖУМАҚУЛОВ,
Ўзбекистон Республикаси Президентининг Музработ тумани Халқ қабулхонаси мудири.

Анорзор маҳалласи ҳудудида жойлашган 8-умумтаълим мактабида миллий либосларда замонавий ва анъанавий қадриятлар уйғунлигини ошириш мақсадида «Миллий либослар намойиши» синфлар кесимида ташкил этилди.

Суратда: *ўқувчи қизлар миллий атлас либосларида.*

Аҳолини рўйхатга олиш 2026 йилга режалаштирилмоқда

Ўзбекистон Статистика агентлиги 2026 йилда аҳолини рўйхатга олишни ўтказиш тўғрисидаги қонун лойиҳасини жамоатчилик муҳокамасига тақдим этди. Унга кўра, бу бўйича республика комиссияси тузилади. Олий Мажлисга топонимик объектларга ном бериш ва номларни ўзгартиришни вақтинча тўхтатиш тавсия этилади.

Президент ҳузуридаги Статистика агентлиги "Ўзбекистон Республикасида 2026 йилда аҳолини рўйхатга олишни ўтказиш тўғрисида"ги Қонун лойиҳасини жамоатчилик муҳокамаси учун эълон қилди. Лойиҳага кўра, Ўзбекистонда 2026 йилда аҳолини рўйхатга олишни ўтказишга кўмаклашиш бўйича республика комиссияси ва ҳудудий комиссиялар ташкил этилади. Республика комиссиясига Бош вазир Абдулла Арипов раислик қилади.

Ўзбекистонда 2026 йилда аҳолини рўйхатга олишни ўтказишга кўмаклашиш бўйича республика комиссиясининг асосий вазифалари этиб қуйидагилар белгиланади:

аҳолини рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш билан боғлиқ чора-тадбирларнинг ўз вақтида ва сифатли бажарилишини таъминлаш;

аҳолини рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказишга доир ишлар жараёнларининг мувофиқлаштирилиши ва мониторингини амалга ошириш;

аҳолини рўйхатга олиш натижаларининг таҳлилини ўтказиш;

аҳолини рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказишни молиялаштириш, аҳолини рўйхатга олиш материалларига ишлов беришни ташкил этиш ва унинг якуний натижаларини эълон қилиш масалаларига доир таклифларни кўриб чиқиш;

аҳолини рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказишда иштирок этиш учун жисмоний ва юридик шахсларни уларнинг ишига ҳақ тўлаш масалаларини ҳал қилган ҳолда жалб этишни ташкил этиш;

халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик қилишни амалга ошириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш.

Туман статистика бўлими.

Воҳамиз пахтачилиги равнақи учун

Хитой давлатидан сара чигит келтирилди

Бу йил вилоятимиз пахтакорлари 62850 гектар майдонга чигит экишни режалаштирмоқда. Жумладан, вилоятимизнинг Денов, Қумқўрғон, Олтинсой, Узун, Шўрчи, Шеробод, Музработ, Сариосиё ва Термиз туманларида жами 16 минг гектар майдонга Хитой давлатидан келтирилган «Xin Lu Zao-78» ҳамда «Xin Lu Zao-52» ғўза навлари чигити экилади. Ушбу ғўза навлари Хитой давлатининг Шинжон автоном ҳудудида яратилган ва Чин давлати ерларининг катта қисмида ўстирилиб, юқори ҳосил олинмоқда. Воҳамиз деҳқонлари ушбу навлар чигитини экишга пухта ҳозирлик кўраяпти: етарлича уруғлик чигит келтирилган ва ушбу навлар чигитини экиш учун махсус сеялкалар олиб келинган.

Хўш, "Сурхондарёда воҳа иқлимига мос, ҳосилдорлиги анча баланд, тажрибада синалган ғўза навлари чигити етарли бўлишига қарамай, нега айнан Хитой давлатидан янги ғўза навлари чигити келтирилаяпти ва бу навлар чигитини экиш учун катта майдон, яъни 16 минг гектар ер ажратилмоқда?" деган савол туғилади. Сабаб шуки, бу навлар пахтасининг толаси ингичка, узун ва пишиқ, сифати юқори бўлиши билан жаҳон бозорида бошқа давлатларда етиштирилаётган пахтанинг баҳосига ўз таъсирини ўтказмоқда. Жумладан, жаҳон бозорида Марказий Осиё республикаларида етиштирилган пахта хомашёсига эҳтиёж бирмунча пасайган.

(Давоми 3-бетда.)

Ҳуқуқшунос талқини

КРЕДИТ ШАРТНОМАЛАРИ

бу борада келиб чиқадиган низоларни иқтисодий судларда кўриб чиқишнинг ўзига хос жиҳатлари

Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида кредит шартномалари муҳим ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодексининг 744-моддасига кўра кредит шартномаси бўйича бир тараф – банк ёки бошқа кредит ташкилоти (кредитор) иккинчи тарафга (қарз олувчига) шартномада назарда тутилган миқдорда ва шартлар асосида пул маблағлари (кредит) бериш, қарз олувчи эса олинган пул суммасини қайтариш ва унинг учун фоизлар тўлаш мажбуриятини олади.

Хабарингиз бор, кредит шартномалари банклар ёки молиявий ташкилотлар томонидан мижозларга белгиланган шартлар асосида пул маблағлари тақдим этилишини тартибга солади. Ушбу шартномаларнинг ҳуқуқий асослари ва уларни иқтисодий судларда кўриб чиқиш жараёнлари бир қатор ўзига хос жиҳатларни ўз ичига олади.

Маълумки, иқтисодий судлар, асосан, юридик шахслар ёки якка тартибдаги тадбиркорлар ўртасидаги молиявий мажбуриятлар билан боғлиқ низоларни кўриб чиқади. Кредит шартномалари билан боғлиқ масалаларда судлар энг аввало шартнома шартларининг бажарилиш ҳолатини, яъни суд кредит берувчининг ёки қарздорнинг шартнома шартларини қанчалик бажаришини таҳлил қилиши, пеня ва жарималарга бўлган ҳуқуқларини амалга ошириш ҳолатини, агар қарз ўз вақтида қайтарилмаса, шартномада белгиланган фоизлар ҳамда жарималарнинг қонунийлиги ва миқдори суд томонидан ўрганиш орқали аниқланиши лозим бўлади. Суд низони ҳал қилишда томонлар ўртасидаги мувозанатни таъминлашга ҳаракат қилади.

Кредит шартномаларининг бошқа шартномалардан фарқли жиҳатлари шундан иборатки, биринчи навбатда кредит шартномалари пул маблағлари билан боғлиқ бўлишини қайд этиш жоиз. Кредит шартномалари фақат молиявий мажбуриятлар асосида тузилади, бошқа шартномаларда эса мулк, хизмат ёки бошқа мажбуриятлар иштирок этишини кўришимиз мумкин. Кейинги босқичларда фоизларнинг мавжудлигини келтириб ўтиш мумкин, сабаби кредит шартномаларида, одатда, қарз учун фоизлар белгиланган бўлади, бу эса бошқа шартномаларда кўпгина ҳолларда учрамайди.

(Давоми 2-бетда.)

Munosabat

Yoshlar – xalqimizning, Vatanimizning oltin fondi

Buyuk shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, yoshlik – bu qalbning oltin sozi. Bunga qo'shimcha qilib, yoshlar – xalqimizning, Vatanimizning oltin fondi, desak to'g'ri bo'ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV

Davlatimiz rahbarining joriy yil 14-fevralga yoshlar bilan bo'lgan ochiq muloqoti nafaqat bugunning, balki kelajakning ham tarixiy lahzasiga aylandi! Video-selektor shaklida o'tgan uchrashuvda davlatimiz rahbari so'zining avvalida azmu shijoatli, navqiron yoshlar bilan uchrashib turganidan mamnunligini bildirib, ularning timsolida Yangi O'zbekistonning bugungi va ertangi bunyodkorlarini ko'rayotganini hamda bugungi kunda yoshlarimizning turli sohalardagi yutuqlari bilan tengdoshlariga o'rnak bo'layotganini ta'kidlab o'tdilar.

Ochiq muloqat tarzida davom etgan uchrashuv davomida davlatimiz rahbarining: "Men bir hayotiy fikrni takrorlashdan charchamayman: bitta qizni o'qitsak, butun oilani o'qitgan bo'lamiz. Oila bilimli, ma'rifatli bo'lsa, butun jamiyat bilimli, ma'rifatli bo'ladi. Bu boradagi ishlarni yanada jadal davom ettiramiz" degan ezgu tashabbuslari yoshlarga ulkan imkoniyatlar eshigini ochdi desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Yana bir yangilik – iqtidorli, bilimga chanqoq, lekin og'ir oilaviy sharoiti sababli o'qish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoshlarni xorijda o'qitish bo'yicha yangi tizim – "Yorqin iste'dod" loyihasi joriy etilishi katta voqeilik bo'ldi.

Bunda har bir mahalladan ijtimoiy himoyaga muhtoj, bilimga chanqoq yoshlar saralab olinib, iqtidori aniqlanadi. Dastlab ularning salohiyatiga mos xorijiy oliygoh tanladi.

(Davomi 2-betda.)

Жамиятнинг асосий бўғини

Оилага эътибор–келажакка эътибор

Муқаддас динимизда оила-никоҳ ниҳоятда улуғланади ва жуда юксак қадрланади. Шунданми, “Бир оила бузилса, арши аъло титрайди” каби ҳадислар кўпчилигимизнинг онгу шууримизда яшайди. Чунки оила бизнинг ажралмас ва энг олий қадриятимизга айланиб улгурган. Қадриятларимиздан хабардор кўпчилик учун эса, яна бир ҳадиси шарифда келтирилган “Инсон оила қурса, дининг ярмини мукаммал қилган бўлади...” сўзларини бир бор такрорлаш кифоядир.

Асосий қонунимизда ҳам тарихий ва миллий қадриятимизга айланган оилага алоҳида бир боб (Конституция 14-боб) ажратилган. Бу боб “Оила жамиятнинг асосий бўғинидир ҳамда у жамият ва давлат муҳофазасидадир. Никоҳ Ўзбекистон халқининг анъанавий оилавий қадриятларига, никоҳланувчиларнинг ихтиёрий розилигига ва тенг ҳуқуқлилигига асосланади” деган жумла билан бошланиб...”, “ота-оналар ва уларнинг ўрнини босувчи шахслар ўз фарзандларини вояга етгунига қадар боқиши, уларнинг тарбияси, таълим олиши, соғлом, тўлақонлиги ва ҳар томонлама камол топиши хусусида ғамхўрлик қилишга мажбурдирлар” деб якунланади.

Оила давлат муҳофазасида бўлиб, никоҳ тенг ҳуқуқлилик асосида қурилар экан, оила бошлиғи, ота-оналар ҳам нафақат никоҳ муносабатларида, балки фарзандлари, оиласи олдида ҳуқуқдор бўлиши билан бирга, бурчдор бўлиб мажбурият олади. Лекин ҳозирги кунда эр-хотинлар ўзларининг оила, фарзандлар, қариндошуруғлар олдидаги ҳуқуқлари, бурчлари ва мажбуриятларини унутиб қўйдилар.

Оилавий ажримлар, ...албатта уларнинг сабаб ва омиллари турлича: -мулксизлик, ишсизлик, қайноначилик, қайнотачилик, ичкиликбозлик, гиёҳвандлик, келиннинг хурмача қилиқлари, куёвнинг бекчилиги, қариндошуруғ, қўни-қўшниларнинг оила ҳаётига ортиқча аралашуви, оилалардаги ҳам моддий, ҳам маънавий тафовут, бепуштлик, масъулиятни тўлиқ англаб етмаслик ва бошқа биз билмаган кўплаб асослар мавжуд.

Музработ тумани бўйича 2024 йилда жами ажримлар сони 160 тани ташкил этди. Шундан 114 таси тегишли фуқаролик ишлари бўйича судларнинг қарорига асосан, 44 таси томонларнинг ўзаро розилиги асосида туман ФҲДЁ бўлимида, 2 таси суд ҳукмига асосан бекор қилинган. Ажримларни маҳаллалар кесимида таҳлил қилинганда, Алпомиш маҳалласида 16 та, Орият маҳалласида 9 та, Наврўз ва Меҳнатобод маҳаллаларида 7 тадан, Янги ҳаёт, Ат-Термизий, Гулистон, Обод турмуш маҳаллаларида 6 тадан, Янги диёр, Юртим жамоли, Янгиер, Файзиобод, Чегарачи маҳаллаларида 5 тадан оилалар барбод бўлган.

Оиланинг муқаддас эканлигини тушунмаган, оилавий муносабатларга тайёр бўлмаган фуқаролар Ч.Ж. ва П.О. 2024 йил 7 август куни оила қуришиб, 2024 йил 20 ноябрь куни никоҳларини бекор қилишган, яъни бу никоҳ бор-йўғи 3 ой давом этган. Фуқаролар А.Б. ва У.Р.ларнинг никоҳи 11 ой, С.Ў.ва А.З.ларнинг никоҳи 1 йилу 15 кун давом этганлигини қандай изоҳлаш мумкин? Буларни ёш, ҳаётнинг паст-баландини яхши тушунмаган десак, ёшлари бир жойга борган фуқаролар Н.И. ва Х.З.лар 35 йил бирга турмуш қуришган, фуқаролар К.Т. ва Б.Д.лар 25 йил, фуқаролар Ж.Х.ва К.А.лар 20 йил бирга турмуш қуришганига қарамай, арзимаган сабаблар билан ажралганлар. Энг ачинарлиси, бу оилавий ажримлар натижасида 145 нафар бола тирик етим бўлиб қолган.

Хуллас, бу мавзуни бир мақола доирасида кўриб чиқиш имкони мавжуд эмас. Шундай экан, осмонимиз мусаффо, юртимиз тинч, оилаларимиз мустаҳкам, келинкуёв, қайнота-қайноналар аҳил-иноқ, қўни-қўшнилар тинч-тотув, никоҳ тузган оилалар ризқу-рўзли бўлиб, “Қўшганинг билан қўша қари ”, “Борган жойингда тош қотгин” деган донишманд халқимизнинг кенг маъно дуолари доим ижобат бўлсин.

Б.МУҲАММАДИЕВА, туман ФҲДЁ бўлими биринчи тоифали инспектори, халқ депутатлари туман Кенгаши депутати.

Ҳуқуқшунос талқини

КРЕДИТ ШАРТНОМАЛАРИ

бу борада келиб чиқадиган низоларни иқтисодий судларда кўриб чиқишнинг ўзига хос жиҳатлари

(Бошланиши 1-бетда.)

Кредит шартномаларидаги энг муҳим жиҳатлардан бири муддат ва қайтариш шартининг мавжудлиги бошқа шартномалардан уни ажратиб туради. Кредит шартномалари белгиланган муддат ичида қарз маблағларини қайтаришни талаб қилади. Кредит шартномаларида мавжуд бўлган талаблардан яна бири ипотека ёки гаровнинг мажбурийлиги ҳисобланади. Бу эса кредитор учун кредит маблағларини қарз олувчидан ундириб олиш мақсадида муҳим восита сифатида баҳоланади.

Амалиёт билан уйғунлаштирилганда, кредит шартномалари юзасидан Шеробод туманлараро иқтисодий суди томонидан 2024 йилда жами 286 та иш мазмунан кўриб чиқилган бўлиб, мазкур низоларнинг аксарияти кредит суммасини гаровдаги мол-мулкка қаратиш, тижорат кредити юзасидан мажбуриятларни бажармаган ёки лозим даражада бажармаганлиги учун кредит асосий қарздорлигини, муддати ўтган кредит қарздорлигини, унга ҳисобланган банк фоизини ундириш, ундирувни гаров мулкига қаратиш, ундирувни кафилдан солидар тартибда ундиришга, шунингдек, кредит шартномаларнинг айрим бандларини ёки кредит шартномасини ҳақиқий эмас деб топиш тўғрисидаги, кредит шартномасини муддатидан олдин бекор қилиш ҳақидаги низолар судга тақдим этилганлигини кўришимиз мумкин.

Кредит шартномалари иқтисодий фаолиятда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, уларнинг низоларини иқтисодий судларда кўриб чиқиш аниқ қонунчилик асосида амалга оширилади. Бу жараён томонлар ўртасидаги ҳуқуқий мувозанатни сақлашни таъминлашга қаратилган. Шунинг учун ҳам судимиз томонидан бундай турдаги низоларнинг 225 таси (қарийб 78,67 фоизи)нинг қаноатлантирилганлиги шартнома тарафларининг, энг аввало, кредит шартномаси шартларини тузишда ва бажаришда томонларнинг масъулиятли бўлиши зарурлигини англатади.

Шу ўринда кредит шартномасини расмийлаштиришда томонлар шартнома шартларини тўлиқ тушунмасдан имзоламаслиги, ҳар икки томон, айниқса, қарздор, шартнома шартларини диққат билан ўқиб чиқиши ва улардаги мажбуриятларни тўлиқ тушуниб олиши, қарздорларга молиявий аҳволини таҳлил қилиш ва қайта кўриб чиқишни, шартнома шартларига риоя қилмаслик жарималар ва пеняларнинг кўпайишига олиб келишини инобатга олишларини, аксарият қарздорлар ўз ҳуқуқлари ва мажбуриятлари ҳақида тўлиқ маълумотга эга бўлмаганлиги оқибатида ҳуқуқшунослар, юристлардан маслаҳат олган ҳолда шартнома тузишлари лозимлигини, томонларга шартномавий мажбуриятларга риоя қилишнинг ҳуқуқий ва ахлоқий жиҳатларини тўлиқ тушуниб етишлари кераклигини, бу эса улар ўртасидаги ишончни сақлаш учун ҳам, қонунчиликни бузмаслик учун ҳам муҳим ҳисобланишини таъкидлаш ўринлидир.

Дарвоқе, суд жараёни ҳар икки томон учун вақт ва ресурсларни талаб қилади. Шунинг учун қарздорларга низони судгача ҳал қилиш учун бор имкониятлардан (ўзаро муросага келиш, келишув битимини тузиш, медиация тартиб таомилларига риоя этиш каби) фойдаланиш тавсия этилади. Зеро, кредит шартномалари ўз вақтида бажарилиши ҳар икки томон манфаатларига хизмат қилади.

Т.ЖАББАРОВ, Шеробод туманлараро иқтисодий суди судьяси.

Munosabat

Yoshlar – xalqimizning, Vatanimizning oltin fondi

(Boshlanishi 1-betda.)

Yigit-qizlar tayyorgarlik kurslarida o‘qitilishi, xorijda ta’lim olib qaytgan yoshlar Milliy kadrlar zaxirasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritilishi, ular davlat organlariga tanlovsiz ishga olinishi hamda har yili saralashdan o‘tgan 1 ming nafar yoshlar dunyoning “top-100” oliygohlariga yuborilib, o‘qish va yashash xarajatlari qoplab berilishi, yoshlarning tashabbus va imkoniyatlaridan kelb chiqib, “Men buyuk el farzandiman” umummilliy harakatining yo‘lga qo‘yilishi yoshlarning olqishlari bilan qarshi olindi.

Muloqat davomida davlatimiz rahbarining kuyunchaklik bilan bugungi kunda mafkuraviy xavf-xatarlar allaqachon kibermakonga ko‘chib o‘tganini, shu munosabat bilan yoshlarimizda internetdan foydalanish madaniyatini yanada yuksaltirish, ular yolg‘on ma’lumotlar qurboniga aylanishi, dunyoqarashi salbiy g‘oyalar ta’sirida shakllanishini oldini olish muhimligi ko‘rsatib o‘tildi. Farzandlarimizning ma’naviy tarbiyasi va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularni yot g‘oyalardan asrash har birimizning vazifamizga aylanishi shartligi ta’kidlandi.

Shu bois mutasaddilarga yoshlarning mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash, ularni dardiga malham bo‘lib, muammosini hal qilib, turli g‘oyaviy xurujlardan asrash, zararli axborotlardan himoya qilish ishlarini kuchaytirish topshirildi. Ilm-fan va ta’lim yo‘nalishidagi foydali mahalliy internet resurslari reestri shakllantirilib, ulardan bepul internet tarmog‘i orqali foydalanish yo‘lga qo‘yiladi.

Nuroniylarimiz ishtirokida “Ajdodlar merosiga munosib avlod” g‘oyasi ostida yoshlarni birlashtirish bo‘yicha yangi tizim joriy etiladi. Shuningdek, yoshlarda vatanparvarlik hissini oshirish maqsadida “Men buyuk el farzandiman” umummilliy harakatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha yoshlarning tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi.

Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda badiiy adabiyotning roli juda katta ekani ta’kidlandi. Bundan qirq yil oldin ustoz shoir Erkin Vohidov tashkil etgan "Yoshlik” jurnali faoliyatini kuchaytirib, uni yana yoshlarimiz sevib o‘qiydigan jurnalga aylantirish muhimligi ta’kidlandi.

Darhaqiqat, ochiq muloqat tarzida kechgan uchrashuv yurtimiz yoshlariga e’tibor va g‘amxo‘rlik bugun har qachongidan ham ustuvor vazifaga aylanganligidan dalolat beradi. Kelajagimiz vorislarining o‘qib-izlanishi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallashi, jamiyatning faol a’zosi sifatida mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shishi uchun mamlakatimizda qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Zero, ular ertangi kunimiz poydevori, orzu-umidlarimiz davomchilaridir.

Muhtaram Prezidentimizga qarata ishonch bilan ayta olamizki, biz yoshlar sizning rahbarligingizda, biz nafaqat o’z qobiliyatlarimizni rivojlantirish, balki yurtimizning kelajagini qurish yo’lida ishtirok etish imkoniyatiga egamiz. Yoshlarni qo’llab-quvvatlash borasidagi tashabbuslaringiz bizga yangi orzular va maqsadlar sari yo’l ochmoqda. O’zbekistonning yuksalishi uchun barchamiz birgalikda mehnat qilishga tayyormiz. Sizning ishonchingiz va qo’llab-quvvatlashingiz bizni yanada kuchliroq va qat’iyatliroq qiladi. Biz yoshlar kelajakni yanada yorqinroq qilish uchun qo’limizdan kelgan barcha kuchni sarflaymiz. Sizning rahbarligingiz ostida, kelajakda O’zbekistonni yanada yuksaltirishda biz, yoshlar o’z o’rnimizni topamiz.

Jamshid NAZAROV, Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti tyutori.

Oiladagi zo‘ravonlikka «YO‘Q» deymiz

Ma’lumki, davlatimizda inson huquq va erkinligi eng oliy qadriyat hisoblanadi. Chunki har bir shaxs erkin yashashga, har qanday tajovuzlardan xoli hayot kechirishga haqlidir. Shuning uchun ham mamlakatimizda xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo‘ravonlikdan ishonchli himoya qilishga alohida e’tibor berilmoqda. Ya’ni unga oid institutsional hamda huquqiy asoslarni tubdan takomillashtirishga, bolalar orasida nazoratsizlikning va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga, shuningdek, nogironligi bo‘lgan bolalarni hamda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilishi shular jumlasidandir.

Shu bilan birga bugungi kunda huquqni qo‘llash amaliyotida xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish bilan bog‘liq masalalarda bir qator huquqiy choralar amalga oshirilib, takomillashtirilib borilmoqda. Xususan, 2023-yil 11-aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga daxl qiluvchi jinoiy qilmishlar uchun mutanosib sanksiyalar belgilanishi xotin-qizlarni shilqimlik va zo‘ravonlikdan himoya qilishning huquqiy kafolatlari bo‘lib xizmat qilmoqda.

Qonunga ko‘ra, Jinoyat kodeksiga quyidagi o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi:

voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotlar bilan muomala qilish voyaga yetmagan shaxs ishtirokida qo‘shmachilik qilish, fohishaxonalar tashkil etish jinoyatlari jinoyatga tayyorgarlik yoki suiqasd bosqichida to‘xtatilganda, mazkur jinoyatlar uchun jazo tayinlashda yengillik berilmaydi. Quyidagi jinoyatlarni sodir etganlarga jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llanilmaydi:

18 yoshga to‘lmagan jabrlanuvchi nomusiga tegish va uni jinsiy aloqaga majbur etish bilan bog‘liq jinoyatlar;

16 yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa yoki unga uyatsiz-buzuq harakatlar qilish;

voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotlar bilan muomala qilish;

voyaga yetmagan shaxs ishtirokida qo‘shmachilik qilish, fohishaxona tashkil etish bilan bog‘liq jinoyatlar.

Shuningdek, ayolni homilasini sun’iy tushirishga majburlaganlik uchun javobgarlik kuchaytirilib, jarima miqdori BHMning 100 baravaridan 200 baravarigacha yoki 3 yildan 5 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud 300 soatdan 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilandi. Nomusga tegish (118-modda) va jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish (119-modda) jinoyatlari uchun 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilandi. Agar mazkur jinoyatlar nogironligi bo‘lgan shaxslarga, sobiq xotiniga, bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoxud umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilishi, jabrlanuvchiga qarab turish yuklatilgan ta’lim, tarbiya, davolash yoki boshqa muassasaning xodimi tomonidan sodir etilishi jinoyatni og‘irlashtiruvchi holat deb topilishi nazarda tutilmoqda.

Eng e’tiborlisi shundaki, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun javobgarlik kiritildi. Unga ko‘ra, xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro‘zg‘orda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega shaxsga nisbatan:

mulk, ta’lim olish, sog‘liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish;

mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish;

ularning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo‘rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish, mazkur harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilsa, BHMning 20 baravaridan 30 baravarigacha jarima yoki 160 soatdan 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Nafaqat shaxsning sha’nini va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma’lumotlarni oshkor qilganlik uchun javobgarlik belgilandi. Balki endilikda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etganlik uchun ma’muriy javobgarlik mavjudligi mamlakatimizda zo‘ravonlik deb nomlanmish illatni batamom yo‘qotishdagi dadil qadamlardan biridir.

Shahvoniy shilqimlik qilish, ya’ni shaxsga nisbatan uning uchun nomaqbul bo‘lgan hamda uning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlaydigan, shaxsning tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imo-ishora qilishda, teginishda, chaqirishda ifodalangan, shahvoniy xususiyatga ega bo‘lgan harakatlarni bir marta qo‘pol ravishda yoki bir necha marta sodir etish 15 sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) idoralararo komissiyalarining faoliyati isloh etilib, ular tegishincha Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya, bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) komissiyalari etib qayta tashkil etildi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohada o‘z huquqlari va manfaatlarini amalga oshirishida qo‘llab-quvvatlash masalalarini tartibga soluvchi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni nazarda tutuvchi, shuningdek, bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlab qo‘yuvchi o‘zgartishlar kiritildi. Albatta, bu xotin-qizlar va bolalarga nisbatan shilqimlik hamda zo‘ravonlikning oldini olishga, oilalardagi ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga, bolalar va xotin-qizlar huquqlari bilan bog‘liq xalqaro indekslarda mamlakatimizning o‘rnini yaxshilashga xizmat qiladi.

Irisa SHODIYEVA, Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti talabasi.

Яқинда жиноят ишлари бўйича Музработ туман суди навбатдаги очиқ суд мажлисида “Янги ҳаёт” маҳалласида яшовчи Раҳматали Умрзоқов (исм-фамилиялар ўзгартирилган) содир этган жиноят тавсилотини кўриб чиқди. Афсуски, Р.Умрзоқов суд жараёнида ўтирган “қора курси” унга “бегона” эмас. У 2019 йил 9 августда бўлиб ўтган судда шу курсида ўтириб, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 177-моддаси 3-қисми “в” банди билан айбли деб топилиб, Жиноят кодексининг 57-моддаси қўлланган ҳолда 1 йил 6 ой муддатга озодликдан чеклаш жазоси тайинланган эди. Ачинарли томони, Р.Умрзоқов бундан хулоса чиқармаган экан.

Озодликни чеклаш жазоси тайинланди

Раҳматали Умрзоқов туман марказидаги автоэҳтиёт қисмлар оилавий корхонасида ишлайди. Корхона ёнида эса автомобилларга техник хизмат кўрсатиш устахонаси бор. Устахонани таниши Толиб Каримов отаси билан ижарага олиб ишлатишади. Бу ерга яна бир таниши автомашинасига мой алмаштириш учун келганида, Раҳматали бу ишни Толибдан илтимос қилади. “Илтимос” бажарилади, аммо Раҳматали: “бу иш учун кўп олдинг” деб Толибга эътироз билдиради. Ҳаммаси мана шундан бошланди.

Шундан кейин Т.Каримов кўпдан буён устахонада ишлатиб келаётган Р.Умрзоқовга тегишли ҳаво пуркагич (компрессор) ва калитлар жамламасини кўрсатиб (гарчанд қайтар деб сўрамаган бўлса-да): “бу нарсаларингизни олинг, ўзингиз ишлатасиз” дейди. “Булар менинг машинамга сиғмайди, хўп десанг, кечки пайт сенинг машинангда олиб кетамиз”, дейди Р.Умрзоқов. Кечқурун соат йигирма бирлар атрофида у Т.Каримовга қўнғироқ қилиб келганида “компрессор” ўрнида йўқ эди. Унинг нима бўлганини ҳеч ким билмасди. Шу ва бошқа сабаблар билан улар орасидаги “муомала сувлари лойқаланиб”, ёқавайрон бўлишгача боришади. Р.Умрзоқов Т.Каримовга мушт кўтариб, тан жароҳати етказади.

Суд фуқаровий даъвони ундириш масаласини муҳокама қилиб, зарарни қоплаш мақсадида судлар фаолиятини моддий ва техник жиҳатдан таъминлаш Департаменти Сурхондарё бўлимининг депозит ҳисоб рақамига тўланган 500000 сўм пулларни жабрланувчи Т.Каримов фойдасига қаратди. Ундирилмасдан қолган моддий ва маънавий зарарни ундириш мақсадида асослантирилган ҳужжатларни тақдим этган ҳолда фуқаролик иши юритиш тартибида фуқаролик судларига мурожаат қилиш ҳуқуқлари борлигини тушунтиришни лозим топди.

Суд ҳукмига кўра Р.Умрзоқовга Жиноят кодексининг 109-моддаси 2-қисми билан 1 йил муддатга озодликни чеклаш жазоси тайинланди.

Яҳё БЕККАМОВ, жиноят ишлари бўйича туман суди раиси.

Инсон ва қонун

Ҳуқуқбузар жарима тўлайди

унга тегишли бўлган «Galaxy M32» русумдаги телефон аппарати эса йўқ қилинади

Ўзбекистон Республикаси ИИВ ва ДХХнинг “Тўсиқ” номли қўшма режасига асосан туманда ўтказилган навбатдаги тадбир давомида “Йўлчи” маҳалласида яшовчи К.Ш.туман ички ишлар бўлимига олиб келинди. У билан профилактик мулоқот қилинди ва унинг ўзи ихтиёрий равишда тақдим этган “Galaxy M32” русумдаги телефон аппаратини холислар ва мутахассис иштирокида кўздан кечириш, процессуал ҳаракати ўтказилди.

Телефон аппаратига жойлаштирилган инстаграмм ижтимоий тармоғи кўздан кечирилганда, профилининг “Ваши действия” бўлими, “Отметки”, “Нравится” бўлинмасига киритилганида бир қанча видео роликлар мавжудлиги, уларга ўзининг класс муносабат белгиси қолдирилганлиги аниқланди. Хусусан, Рашод Камолов, Содиқ Самарқандий ва номаълум ижрочиларга тегишли 14 та видео роликлар К.Ш.га ёққанлиги тўғрисида (лайк) белги қолдирилганлиги аниқланган. Бу видео роликлар DVD+R дискка кўчириб олиниб, холислар иштирокида “Пакетлар учун” муҳри билан муҳрланган.

Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича қўмитаси Сурхондарё вилояти вакиллиги эксперти тақдим этилган дискдаги маълумотларда Ўзбекистон Республикасининг амалдаги давлат тузумини Конституцияга хилоф равишда ўзгартиришга, ҳокимиятни эгаллашга, қонуний сайлаб қўйилган ёки тайинланган ҳокимият вакилларини ҳокимиятдан четлатишга, давлатимиз ҳудудий яхлитлигини Конституцияга хилоф равишда бузишга қаратилган чақирувчи даъватлар мавжуд эмас. Аммо файллардаги маълумотларда Содиқ Самарқандий ва Рашод Камоловнинг фикр, маъруза ва фатволари аҳоли орасида турли ихтилофларни юзага келишига сабаб бўлаётганлиги боис, уларнинг чиқишлари ёзилган маълумотларни Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш, тайёрлаш ва тарқатиш тақиқланган.

Жиноят ишлари бўйича Музработ тумани судининг қарорига кўра, К.Ш.га Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг тегишли моддасини қўллаб, базавий ҳисоблаш миқдорининг 10 баравари миқдорида, яъни 3750000 сўм жарима жазоси тайинланди. Ашёвий далил сифатида олинган, қиймати 500000 сўмлик “Galaxy M32” русумли телефон аппарати йўқ қилинадиган бўлди.

Акбар ХИДИРОВ, Шерали МЎМИНОВ, туман ИИБ тезкор қидирув хизмати ходимлари.

Воҳамиз пахтачилиги равнақи учун

Хитой давлатидан сара чигит келтирилди

(Бошланиши 1-бетда.)

Энг муҳим жиҳати шундаки, Хитой давлати ерларида етиштирилаётган пахталар толасини маълум бир шароитда бир неча йил сақлаш мумкин бўлиб, сифатини сира йўқотмайди. Хитой пахтаси толаси сифати пишиқлиги боис куч билан тортганда ҳам узилмайди, касаллик ва ҳашаротларга чидамли, машинада теришга мўлжалланган, жаҳон стандартлари талабига мос. Шу афзалликлари инобатга олиниб, вилоятимизга Хитой давлатида етиштирилган серҳосил ғўза навлари чигити келтирилди ва катта майдонда экилади.

Деҳқонларимизга ушбу мақоламизда Хитой давлатидан олиб келинган «Xin Lu Zao-78» ва «Xin Lu Zao-52» ғўза навларининг қимматли хўжалик белгилари ва парваришлаш агротехнологиялари бўйича ўзимизнинг тавсияларимизни бериб ўтамиз. Бу навлар ғўзасининг баландлиги 85-110 сантиметрдан ошмайди, ўсув, яъни парваришлаш даври 115-120 кунни ташкил қилади. Кўсаклари чўзинчоқ шаклда, ҳар бир чаноқдаги пахтаси оғирлиги 5,5-7 граммдан иборат бўлиб, тола чиқиши 42 фоиздан зиёд, агротехника талабларига қатъий амал қилиниб парвариш қилинса, ҳар гектар майдондан ўртача 75 центнергача ҳосил олиш мумкин.

Чигитни экиш учун оптимал муддат–апрелнинг 5-15 кунлари. Тупроқда ҳарорат 14 даражага етганда 10 сантиметр чуқурликда, шўр майдонларда тупроқ ҳарорати 17 даражага етганда чигитни экиш мумкин. Чигитни асосан қўшқаторлаб 76 сантиметр қўшқатор (66+10), (60х30), (76х14) схема кенгликда экиш тавсия қилинади. Чигит қўшқаторда экилиб, плёнка остида парваришланганда тўлиқ туп сон олинади. Ёш ниҳолар 3-4 кун эрта униб чиқади, ҳосили 5-7 кун эрта пишиб етилади.

Яганалаш даврида ҳар гектар майдонга ўртача 180-200 минг туп кўчат қолдириш кифоя. Бу нав ғўзалар шўр тупроқларда ҳам яхши ривожланади, фузариоз, вертицеллиоз ва вилт касалликларига бардошли, гармсел ҳамда қурғоқчиликка чидамли. Ушбу навлар ғўзаси генида кўсак қуртига қарши тура олиш хусусияти бор, танаси ва барги орқаси майда туклар билан қоплангани учун шира ҳамда ўргимчак кана камроқ зиён етказади. Вилт сарғайиши ва қуриши касалликларига бардошли.

Ғўзадан юқори ҳосил етиштириш учун вегетация даврида NPK:250,175,125 килограммдан уч марта озиқлантирилади. Ўғитни сувдан икки-уч кун олдин, эгатнинг ичига эмас, балки ғўзанинг ён томонига бериш тавсия қилинади. Обҳаво шароитидан келиб чиқиб ўсув даврида 5-6 марта, сув кам ҳудудларда уч марта суғорилади. Суғориш жараёнида эгат захламаслиги ва кўлламаслиги керак. Ғўза қатор ораси 90 сантиметр кенгликда бўлса ҳар эгатга, агар қатор ораси 60 ёки 76 сантиметр кенгликда бўлса, эгат оралаб суғориш тавсия қилинади.

Ҳосил зараркунандалари–трипс, беда қандаласи, ширага қарши абамектин+имидаклоприд, абамектин+хлорпирифос ва абамектин+атсетамиприд таркибли препаратларни қўллаш талаб этилади. Ғўза оқ пашшаси катта популяцияга эга, жуда тез кўпаяди, қаноти борлиги туфайли дори берилган пайт учиб кетиб, дори таъсири пасайганда яна қайтиб келади. Шунинг учун унга қарши сулфоникамид+пиметрозин препаратини кечқурун штангали пуркагич билан сепилади. Ушбу ғўзалар парвариши жараёнида «Сажен» препарати 6-8 мартагача ишлатилади. Қисқаси, деҳқонларимиз юқорида тавсия қилинган агротехник тадбирларга тўлиқ амал қилсалар, Хитой давлатидан келтирилган ғўза навларидан мўл ва сифатли ҳосил олишга эришадилар.

О.АЛИМАРДОНОВ,
ингичка толали пахтачилик илмий-тадқиқот институти директори, қишлоқ хўжалик фанлари доктори.

М.ТОЖИЕВ,
шу институт лаборатория мудири, қишлоқ хўжалик фанлари номзоди.

Давлат сиёсати концепцияси ва дунёвий тиббиёт

Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида фуқароларнинг виждон эркинлигини таъминлаш ва диний соҳадаги давлат сиёсати концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ЎРҚ-1037-сон Қонуни 2025 йил 25 февралда қабул қилинди.

Тиббиёт йўналишида дунёвийликнинг аҳамияти ва зарурияти

Тиббиётдаги дунёвийлик — соғлиқни сақлаш тизимини ташкил этиш, тиббий хизматлар кўрсатиш ва тиббий маданиятни шакллантиришда илмий тадқиқотлар, далиллар, тиббий-одоб қоидалари, фуқароларнинг соғлиқни сақлаш ҳуқуқлари устуворлиги принципларига таянишдир.

Ушбу ёндашув инсон ҳаёти ва соғлиғини ҳимоя қилиш, самарали даволаш усулларини жорий этиш ва жамоат саломатлигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Зеро, тиббиёт инсон ҳаёти билан бевосита боғлиқ бўлган соҳалардан бири бўлиб, унда ҳар қандай қарорлар илмий асосга эга бўлиши зарур.

Фан тараққиёти, тиббий технологияларнинг ривожланиши ва замонавий таҳлил усулларининг пайдо бўлиши дунёвий тиббиётнинг жамиятдаги аҳамиятини янада оширмоқда.

Дунёвий тиббиётнинг аҳамияти

Дунёвий тиббиёт соҳасида ҳар қандай муолажа ёки дори воситаси клиник ва илмий тадқиқотлар билан тасдиқланиши керак. Бу, ўз навбатида, тасдиқланмаган ва самарасиз усулларнинг соғлиқни сақлаш тизимига кириб келишининг олдини олади. Илмий ёндашувни асос қилиб олган тиббиёт аҳолининг умр кўриш давомийлигини ошириш, касалликларнинг олдини олиш ва уларни самарали даволаш имконини беради.

Ҳар бир тиббий муолажа ва жарроҳлик амалиёти фуқароларнинг ихтиёрий розилиги билан амалга оширилиши лозим. Шу боис, беморларнинг ҳуқуқий ва тиббий жиҳатдан маълумотли бўлиши жуда муҳим. Бунинг учун тиббий муассасаларда фуқароларга тиббий таълим бериш, уларнинг муолажа жараёнлари ҳақида хабардорлик даражасини ошириш бўйича доимий иш олиб борилиши керак.

Дунёвий тиббиётни таъминлаш механизмлари

Тиббиёт йўналишидаги дунёвийликни таъминлашнинг асосий механизмлари қуйидагилардан иборат:

клиник ва илмий тасдиқланган муолажаларни ҳамда дори воситаларини қўллаш бўйича қарор қабул қилишда илмий асосланмаган қарашларга, таъсирларга йўл қўймаслик чораларини кўриш;

беморларнинг тўлиқ хабардорлиги асосидаги тиббий муолажалар ва патологоанатомик амалиётлар ўтказишга ихтиёрий розилик беришга тўсқинлик қилувчи қарашларнинг зарарларини тушунтириб бориш;

ноилмий расм-русумларга асосланган муолажа амалиётлари тиббиёт фанида ва амалиётда мавжуд илмий даволаш усулларининг ўрнини боса олмаслиги ҳақида фуқароларда аниқ тасаввурларни шакллантириш;

тиббий амалиётлар ва тажрибалар шахс ва жамият учун фойдали натижа келтиришини, инсоннинг соғлиғи яхшиланишига олиб келишини таъминлайдиган ишончли механизмларни жорий этиш;

ҳар бир шахсга эҳтиёжига мос тиббий хизматлардан фойдаланиш учун тенг имкониятлар яратиш;

аҳоли ўртасида тиббий муолажани ва даволашни рад этувчи, жамоат саломатлигини хавф остида қолдирувчи қарашлар ва янглиш тасаввурларни бартараф этиш бўйича тушунтиришлар олиб бориш;

клиник тасдиқланмаган даволаш амалиётларини чеклаш юзасидан норматив-ҳуқуқий ва ташкилий чора-тадбирларни амалга ошириш;

ҳар қандай илмий асосланган тиббий ёрдам ва муолажа инсоннинг ҳаёти учун зарур бўлган чора сифатида қўлланилиши мумкинлигини тарғиб қилиш;

инсоннинг соғлиғини ва ҳаётини сақлаш учун тиббий аралашув зарур бўлган ҳолларда фуқароларни тиббий ёрдам кўрсатилишини рад этишга чақиришга йўл қўймаслик бўйича ташкилий ва ҳуқуқий чоралар кўриш;

эмлашдан, инсон аъзолари ва тўқималарининг трансплантациясидан, қон қуйиш ва бошқа тиббий ёрдамни турли сабабларга кўра рад этган шахслар ўртасида тушунтириш ишларини олиб бориш ҳамда ташкилий-ҳуқуқий чоралар кўриш;

тиббиёт ходимлари томонидан тиббий ёрдам ва тиббий хизмат кўрсатиш ҳамда фармацевтика фаолияти жараёнида ўз эътиқодидан келиб чиқиб, беморларнинг ҳаёти ва соғлиғига, бошқа манфаатларига дахл қиладиган ҳар қандай ҳаракатларни (ҳаракатсизликни) бажаришга, шунингдек, бундай хатти-ҳаракатларга (ҳаракатсизликка) чақиришга йўл қўймаслик юзасидан норматив-ҳуқуқий ва ташкилий чора-тадбирларни амалга ошириш;

халқ табобати усулларидан қонунчиликда белгиланган тартибда фойдаланиш учун имкониятлар яратиш.

Тиббиёт соҳасида дунёвий ёндашувни таъминлаш инсон ҳаёти ва жамоат саломатлиги учун муҳим аҳамият касб этади. Илмий асосланган тиббий қарорлар, беморларнинг тўлиқ хабардорлиги ва тиббий хизматлардан тенг фойдаланиш имконияти соғлиқни сақлаш тизимининг асосий принципларидан бири бўлиши керак.

Шунингдек, ноилмий қарашлар ва тасдиқланмаган муолажаларни чеклаш, тиббиёт ходимларининг бетарафлигини таъминлаш ва жамоат саломатлигини ҳимоя қилиш йўлидаги чора-тадбирлар устувор вазифа сифатида қаралиши лозим. Шунинг учун тиббий соҳада илмий ёндашувни ривожлантириш, тиббий таълимни кучайтириш ва аҳоли ўртасида тиббий саводхонликни ошириш ҳар бир жамият учун устувор йўналиш бўлиши керак.

А.ХАМРАЕВ,
Музработ тумани адлия бўлими юридик хизмат кўрсатиш маркази бош юрисконлсульти.

Мутахассис маслаҳати

Қутуришдан сақланинг

Бутунжаҳон ҳайвонлар соғлиғини ҳимоя қилиш ташкилотининг маълумотларига кўра, 2024 йилда дунёнинг 43 та давлатида 2104 ҳолатда ҳайвонлар орасида қутуриш касаллиги қайд қилинган. Натижада улар томонидан инсонларга жароҳат етказилган ва улар қутуриш билан касалланган. Касалликнинг 95 фоизи дайди, қаровсиз итлар томонидан етказилган жароҳат туфайли келиб чиққан, 80 фоизи эса қишлоқ жойлардаги аҳолига тўғри келган. Энг ачинарлиси, жароҳат олганларнинг 60-65 фоизини 14 ёшгача бўлган болалар ташкил қилади.

Балки қайсидир кимсалар 43 та давлат учун 2104 та одам ҳеч қанча йўқотиш эмас, қандайдир фоизларни ташкил қилади деса шошилмасин. Худо кўрсатмасин, агар бу воқеа оиласида, борингки, 10 та аъзоси бўлган хонадонда содир бўлса, бу йўқотишни ҳеч қандай рақамлар ёки фоизлар билан ўлчаб бўлмаса керак! Шунинг учун ҳар йили қутуриш касаллигига қарши курашиш ойликлари олиб борилиши бу бежизга эмаслигини асло унутмаслигимиз лозим.

2025 йилда республика Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитаси томонидан 5 февралдан 20 мартга қадар “Қутуриш касаллигига қарши курашиш ойлиги” деб эълон қилинган. Шунингдек, вилоят Ҳокимининг “Вилоят ҳудудида жорий йилнинг 10 февраль кунидан 25 март кунига қадар қутуриш касаллиги бўйича ветеринария осойишталигини таъминлаш, эпизоотияга қарши профилактик тадбирлар сифатини янада яхшилаш ва кучайтириш тўғрисида”ги 31-8-0-Ф/25-сонли Фармойиши қабул қилинди. Бундан кўзланган мақсад битта. Аҳолини қутуриш касаллигидан ҳимоя қилиш. Жойларда, уймаўй юриб одамларга қутуриш касаллиги ҳақида тушунча бериш, касалликнинг оғир оқибатлари тўғрисида инсонларни огоҳлантириш ва албатта мавжуд итларни профилактик эмлаб чиқиш лозимдир.

Эмлаш ишлари шунчалик қийинчилик билан амалга ошириладики, сабаби туман ҳудудида 95 фоиз хонадонларда итлар бўлса, шуларнинг 90 фоизи боғланмайди. Бирорта маҳаллада Вазирлар Маҳкамасининг “Қаровсиз қолган ҳайвонларни тутиш ва сақлаш билан боғлиқ хизматлар фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2011 йил 8 июлдаги 202-сон қарори ижроси мутлақо бажарилмаяпти. Кўплаб маҳаллаларда маҳалла раислари ва фаоллари қарор асосида бажарадиган вазифаларини ҳам билишмайди.

Энг ёмони, бўш юрганит ҳар хил ҳайвонлар, кемирувчилар билан контактда бўлади. Қутуриш билан нафақат бўри, тулки, шахол ёки итлар касалланади, балки барча турдаги кемирувчилар ҳам касаллик ташувчи манбалар саналади. Кўчада дайдиб юрган ит хонадонга оқибати оғир бўлган қутуриш касаллигини олиб келишини ҳеч қачон унутмаслик керак! Майли, шароитдан келиб чиқиб, қайсидир итлар боғланмай қолиши мумкиндир. Лекин уларни ҳар қандай ҳолатда қутуриш касаллигига қарши эмлатиш ит эгаси учун мажбурий эканлигини ва ит сақлаш қоидаларига амал қилмаганлик учун қонунда жазо белгиланганини унутмангизлар!

Ҳурматли тумандошлар! Қутуриш касаллиги ўта хавфли касалликдир! Ҳар бир ҳудудда туман ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлимида ишловчи ветеринария ходимлари фаолият олиб боради. Сизлар уларни яхши танийсизлар. Хонадонингизга қутуриш касаллигидек бало кириб бормаслиги ўзингизнинг қўлингизда. Яшаётган ҳудудингизда қутуриш касаллигига қарши олиб борилаётган эмлаш ишларида ёрдамингизни аяманг. Ветеринария ходимлари билан боғлиқ муаммолар юзага келганда, тўғридан-тўғри бўлимимизга, яъни 91-517-70-31 рақамига қўнғироқ қилинг!

Ш.ҚУШОҚОВ,
туман ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлими эпизоотик тадбирлар бажарилишини мувофиқлаштирувчи штаби бошлиғи.

Сўраган эдингиз

Дам олиш кунларида ёки ишланмайдиган байрам кунларида меҳнатга ҳақ тўлаш тартиби қандай?

Меҳнат кодексининг 263-моддасига асосан Дам олиш кунларидаги ёки ишланмайдиган байрам кунларидаги иш учун қуйидагиларга камида икки ҳисса миқдорида ҳақ тўланади:

ишбай ишловчиларга — камида икки ҳиссали ишбай баҳолар бўйича;

меҳнатига кунбай ва соатбай тариф ставкалари бўйича ҳақ тўланадиган ходимларга — кунбай ёки соатбай тариф ставкасининг камида икки ҳиссаси миқдорида;

маош оладиган ходимларга – ҳар бир ишланган кун ёки соат учун маошдан ташқари кунбай ёки соатбай ставкасининг камида бир ҳиссаси миқдорида.

Жамоа шартномасида, иш берувчи томонидан касаба уюшмаси қўмитаси билан келишувга кўра қабул қилинган ички ҳужжатда, меҳнат шартномасида дам олиш кунларидаги ёки ишланмайдиган байрам кунларидаги иш учун қўшимча тўловларнинг юқорироқ миқдорлари назарда тутилиши мумкин.

С.ТУРСУНОВ,
Сурхондарё вилояти адлия бошқармаси бошлиғи ўринбосари.

Давлат ижтимоий суғуртаси бўйича нафақалар тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисида Низомга кўра, Вақтинча меҳнатга қобилиятсизлик нафақаси қуйидаги ҳолларда берилади:

-вақтинча меҳнат қобилиятини йўқотиш билан боғлиқ касалликда (шикастланишда);

-санаторий-курортларда даволанганда;

-касалланган оила аъзосини парваришлаш зарур бўлганда;

-карантинда;

-сил ёки касб касаллиги туфайли вақтинча бошқа ишга ўтказилганда;

-меҳнат қобилиятини тиклаш ёки ясама аъзо (протез) қўйдириш учун реабилитация муассасаларига ётқизилганда.

Вақтинча меҳнатга қобилиятсизлик нафақасини тайинлаш учун фақат белгиланган тартибда берилган вақтинча меҳнатга лаёқатсизлик варақаси (касаллик варақаси) асос бўлади. Вақтинча меҳнатга лаёқатсизлик варақаси йўқолган ҳолларда, нафақа, унинг ўрнига такрорий берилган вақтинча меҳнатга лаёқатсизлик варақаси (дубликат) асосида берилади.

Дилдора ЙЎЛДОШЕВА,
Сурхондарё вилояти адлия бошқармаси инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш шуъбаси бош маслаҳатчиси.

Фавқулодда вазиятлар бўлими огоҳлантиради

ИС ГАЗИДАН ЭҲТИЁТ БЎЛИНГ

Азиз юртдошлар, турмушда фойдаланиладиган ёқилғи маҳсулотлари ичида табиий газ анчагина хавфли. Табиий газнинг тўлиқ ёнмаслиги, газ оқимининг бехосдан узилиб қолиши, хонада газ тўпланиши, газни ёқиш ва қаровсиз қолдириш, иситиш тизимларига газни улашда хавфсизлик қоидаларига риоя қилмаслик оқибатида портлаш, ёнғин содир бўлиши, шунингдек, ис газидан заҳарланиш ҳолатлари билан боғлиқ бахтсиз ҳодисалар содир бўлади.

Ис гази организмга нафас йўли орқали ўтиб кислородга нисбатан 300 маротаба тез ва кўп гемоглабинга бирикади. У ҳидсиз бўлгани боис заҳарланиш аввалида ҳеч нарса сезилмайди. Ҳаво таркибидаги ис гази миқдорининг ортиши бош оғриғи ва бўғилишга олиб келади. Заҳарланиш босқичма-босқич юз беради. Ачинарлиси, тан жароҳати бир умрга ногиронликка олиб келиши мумкин. Ҳушдан кетиш ҳолатлари кўпинча ўлим билан якун топади.

Ис газидан заҳаранишнинг олдини олиш чораларигина турли салбий оқибатларга барҳам бера олади. Бунда сиз носоз, ностандарт, қўлбола ясалган иситиш мосламаларидан фойдаланишга асло йўл қўйманг. Табиий газдан фойдаланишда турли хилдаги резина шланглар ва газ сўрғичлардан ҳамда газ плитасидан хонани иситиш мақсадида фойдаланманг. Шамоллатиш каналларини тўсиб қўйманг. Дудбуронларни, тозалаш дарчаларини тўсиб ташламанг, айниқса, болаларни назоратсиз қолдирманг. Газ ҳидини асло ёқиб текширманг.

Агарда хонада табиий газ ҳидини сезсангиз, эшик ва деразаларни очинг. Газ жиҳозларини ўзбошимчалик билан таъмирламанг, уни фақатгина мутахассислар томонидан амалга оширинг. Газ манбаларини зинҳор назоратсиз қолдирманг. Кўчага чиқиш олдидан газ печини албатта ўчиринг. Газ билан боғлиқ ёки заҳарланишлар бўлганда, қуйидаги шошилинч телефон рақамларига қўнғироқ қилинг: 1050-101-қутқарув ва ёнғин хавфсизлиги хизмати, 103–Тез ёрдам, 104–газ авария хизмати.

Юқоридаги қоидаларга ўз вақтида амал қилсак, ёнғин билан боғлиқ фавқулодда вазиятларнинг олдини олган бўламиз. Унутманг, биз доим сизнинг ҳаётингиз учун қайғурамиз. Огоҳ бўлинг.

С.ҚОДИРОВ,
туман фавқулодда вазиятлар бўлими, инспектори, катта лейтенант.

Уйқу олдидан китоб ўқишнинг фойдалари

*Яхшироқ ухлайсиз. Китоб ўқиш хотиржам ва соғлом уйқуни таминлайди, аммо элекрон китоблар эмас.

*Стрессдан қутуласиз. Атиги 6 дақиқалик мутолаа стрессни сезиларли даражага камайтиради.

*Мия фаолиятини яхшилаб, диққатни бир жойга жамлашга ёрдам беради. Китоб ўқиш ҳеч қандай визуал материалларсиз, ахборотни мияда қайта ишлашга ёрдам беради.

*Сизни сезгир қилади. Тадқиқотларга кўра: уйқу олдидан бадиий адабиётларни ўқиш, сизни сезгир инсонга айлантиради.

*Креативроқ бўласиз. Тадқиқотларга кўра уйқу олдидан фантастик асарлар ўқиб, сиз ҳар safar янги оламларга тушасиз, бу эса сизни янада креативроқ инсонга айлантиради.

Тўпловчи Ф.ШЕРАЛИЕВ,
ДХХ Чегара қўшинлари зобити.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tibbiyot xodimlarining alohida o‘rni bor. U tashkilotda bolalar orasida kasalliklar tarqalishini oldini olish uchun muntazam ravishda profilaktik tadbirlar o‘tkazadi. Bolalarning shaxsiy gigiyenasi, toza muhitda yashashlari va salomatlikni saqlashga oid zarur ma'lumotlarni taqdim etadi. Ayniqsa, yuqumli kasalliklar va viruslarning oldini olishga e`tibor qaratadi. Bolalarning to‘g‘ri ovqatlanishini nazorat qilishda ham tibbiyot xodimi muhim rol o‘ynaydi. U ratsionning balansli bo‘lishini, kichkintoylarga foydali va zarur oziqa moddalarini taqdim etishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, allergiya yoki salomatlik bilan bog‘liq boshqa xavflarni aniqlash va ularning oldini olishda ham faol ishtirok etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida

Tibbiyot xodimi nima uchun kerak?

Har qanday jismoniy faollik, o‘yin yoki ijtimoiy muhitda bolalar ba'zida jarohatlar olishi yoxud salomatliklariga xavf tug‘diradigan holatlarga duch kelishlari mumkin. Tibbiyot xodimi o‘zining tezkor reaktsiyasi va tajribasi orqali shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatadi, bolalarni shifoxonaga yetkazish zarurati yuzaga kelgan hollarda ham faollik ko‘rsatadi. Bundan tashqari u bolalarning jismoniy va ruhiy holatini muntazam tekshirib turadi. Bu o‘z navbatida, ularning rivojlanishidagi kechikishlarni yoki salomatlik muammolarini erta aniqlashga ko‘maklashadi. Bolalarning o‘sish va rivojlanishini nazorat qilish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ba'zi bolalar sog‘liq bilan bog‘liq muammolarni boshdan kechirishi mumkin. Tibbiyot xodimi ularni reabilitatsiya qilish, sog‘lomlashtirish va fizioterapevtik mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali ularga yordam beradi. U pedagoglar va tarbiyachilar bilan doimiy muloqot qilib, bolalar salomatligi, ularning ovqatlanish rejimi va jismoniy faolligini muvofiqlashtiradi. Uning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni faqat bolalarning sog‘lig‘ini nazorat qilish bilan cheklanmaydi. Balki pedagoglarga va ota-onalarga bolalarning sog‘lom rivojlanishiga doir maslahatlar berib boradi.

Tibbiyot xodimi bolalar salomatligi bilan bog‘liq muammolarni ota-onalar bilan muhokama qiladi, ularning sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish, bolalariga nisbatan ehtiyotkorlikni oshirishga o‘rgatadi. Ota-onalar bilan sog‘lom ovqatlanish, immunizatsiya, gigiyena va boshqa salomatlikka oid muhim masalalar bo‘yicha ma'lumotlar almashadi. Ta'lim tashkilotida tibbiyot xodimining mavjudligi nafaqat bolalarning sog‘lig‘ini nazorat qilish, balki jamiyatda umumiy sog‘liqni saqlashni yaxshilash uchun ham zarurdir. Bu davlatimiz qonunchiligi bilan mustahkamlangan. Ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar tibbiyot xodimlari uchun maxsus talablarni belgilaydi. Ular bolalar salomatligi bilan bog‘liq barcha masalalarni tizimli tarzda boshqarish, tibbiy yordamni ko‘rsatish, kasalliklarning oldini olish va gigiyena normalarini saqlashni o‘z ichiga oladi. Tibbiyot xodimi nafaqat bolalar salomatligini saqlash, balki ular uchun xavfsiz va sog‘lom o‘quv muhitini yaratish bo‘yicha ham mas`uldir.

Yuqoridagilarga muvofiq bizning maktabgacha ta'lim tashkilotimizda tibbiyot xodimi sifatida men bolalarning sog‘lom rivojlanishiga, kasalliklarning oldini olishga, shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishga, shuningdek, ularni ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlashni ta'minlashga yordam beraman. Bu bilan nafaqat bolalarning salomatligi, balki ularning umumiy rivojlanishi va kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ham katta ta'sir ko‘rsataman. Shu jihatdan maktabgacha ta'lim tashkilotida tibbiyot xodimining mavjudligi va ta`lim-tarbiya jarayonlariga ishtiroki juda muhim deb o‘ylayman.

Gulchehra TURDIQULOVA,
8-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti hamshirasi.

Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani Yangi hayot mahallasida joylashgan «SHUHRAT SAPDORBEK REKLAMA» MCHJ (STIR 311486473)ning ustav fondini 100 000 000 so`mga shakllantirish belgilangan edi. Hozirgi kunda ustav fondi 10 000 000 so`mga shakllangan. Shakllanmagan qismi 90 000 000 so`mni kriditorlarga **MA`LUM QILADI.**

Abdukarimov Jumanazar Sodiq zodaga 2011-yil 16-iyunda berilgan «B, C, CE» toifali AF № 1690814 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo`qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

x x x

Ibragimov Rustam Ishqulovichga 2021-yil 9-martda berilgan «B, C,» toifali AF № 2428614 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo`qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Choriyev Sherbek Turg`un o`g`liga 2015-yil may oyida berilgan «B» toifali AF № 1810767 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo`qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

x x x

Muzrabot tumani T.Berdiyev hududida joylashgan «JAMILA AGRO» fermer xo`jaligining dumaloq muhri va to`rtburchak shtampi yo`qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Маънавиятли ёшлар – юрт келажаги пойдевори

Азал азалдан ота-боболаримиз илму-маърифатни улуғлаб, таълим ва тарбиянинг авлодлар камолотида асосий пойдевор эканини эътироф этиб келган. Қайсики давлатда ёки мамлакатда миллат тақдири эртаси ва келажагига эътибор қаратилар экан, ўша мамлакат, ўша давлат шубҳасиз гуллаб-яшнайди, қудратли ва буюк юрт сифатида тан олинади.

Мамлакатимизда маънавий-маърифий ва мафкуравий тарғибот ишлари ҳеч қачон ҳозиргидек долзарб вазифага айланмаган эди. Маънавий ислоҳотлар давлат сиёсатининг устувор йўналиши бўлгани учун, бугунги кунда мафкуравий таҳдид ва ахборот хуружлари кучайиб бораётгани, одамлар онги ва қалбини эгаллаш учун кураш авжига чиқаётгани, ҳаётнинг барча жабҳалари, ишлаб чиқаришнинг ҳамма соҳалари, аҳолининг ҳар бир қатлами, айниқса, ёшлар орасида маънавий-маърифий ва мафкуравий тарғиботни янги босқичга кўтариш эҳтиёжини юзага келтирди. Шу боисдан ҳам маънавий-маърифий ва мафкуравий тарғибот ишлари қандай дастур ва йўналиш, қай савияда, кимлар тарафидан олиб борилаётгани ғоят муҳим масалага айланди, десак муболаға қилмаган бўламиз.

Аввало, маънавият ўзи нимадан бошланади деган саволга эътибор берсак. Маънавият энг аввало халқнинг ўтмиши, яъни тарихини, ҳозирги реал ҳаётини билишдан, унинг келажагини аниқ тасаввур этишдан, ана шу асосда ўзини ва ўзлигини англаб етишдан бошланади. Мустақиллик йилларида ўзбек халқининг тарихи, маданияти, моддий ва маънавий бойликлари, жаҳон цивилизацияси ривожига катта ҳисса қўшган алломаларининг улкан меросига бўлган муносабат тубдан ўзгарди. Уларнинг меросини қайта тиклаш, тарихий шахслар, буюк алломалар, шаҳарлар, маданий ёдгорликларнинг юбилей ва байрамларини ўтказиш анъанага айланди.

Президентимиз ташаббуси билан қабул қилинган Тараққиёт стратегиясида белгиланган вазифалар ҳам юксак маънавиятли, мустақил фикрлайдиган, замонавий билим ва касб-ҳунарларни пухта эгаллаган ёшларни тарбиялаш, ларда миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат ҳиссини юксалтириш, қалби ва онгида мафкуравий иммунитетни шакллантириш ва такомиллаштиришнинг маънавий-маданий асосларини ўрганиш ва таҳлил этиш борасида зиммамизга катта масъулият юклайди. Ушбу ривожланиш дастурида маънавий бойликларни тиклаш, миллатнинг ахлоқий намунасини такомиллаштириш ва интеллектуал салоҳиятини юксалтириш асосий вазифалардан бири сифатида белгиланган.

Дарҳақиқат, ёш авлодни ҳар томонлама соғлом ва баркамол этиб тарбиялаш – янги ривожланиш босқичида устувор вазифа ҳисобланади. Шу мақсадда Ўзбекистонда олиб борилаётган ислоҳотларнинг бир қисми ёшларга қаратилган. Давлатимиз томонидан ёшларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш, ёшларнинг шахсий, сиёсий, иқтисодий ҳамда ижтимоий ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш ва рўёбга чиқаришни таъминлайдиган зарур шароитларни яратиш, жамият ҳаётида уларнинг ўрни ва фаоллигини ошириш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Бугунги глобаллашув ва ахборот-коммуникациялари жадал ривожланиб бораётган, турли зиддиятлар кучайиб бораётган даврда ёшларимизнинг мафкуравий иммунитетини кучайтириш, уларнинг бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш энг долзарб вазифага айланди. Таълим-тарбия ва тарғибот-ташвиқот тизими мафкуравий профилактикани амалга оширишга ёрдам берувчи муҳим тизимдир. Соғлом мафкурани халқ қалби ва онгига сингдиришга хизмат қиладиган ижтимоий тузилмалар оила, мактаб, маҳалла, давлат ва жамоат ташкилотлари ҳам унда ўз ўрнига эга.

Шунингдек, Ватан, халқ манфаатларини, дўстлик ва биродарликни, ўзаро ҳурмат ва бағрикенгликни тарғиб-ташвиқ этувчи турли маънавий-маърифий тадбирлар мафкуравий профилактикани амалга ошириш шаклидир. Бугунги шароитда ёшларни ўз фикрига эга, турли маънавий хуружларга қарши собит тура олишга қодир бўлган, иродали, фидойи ва ватанпарвар инсонлар этиб тарбиялаш мафкуравий профилактиканинг бирдан бир воситасидир.

Жамиятда ижтимоий барқарорликни ўрнатиш ҳам мафкуравий профилактиканинг муҳим шартидир. Ижтимоий адолат таъминланиши учун мамлакатда қонун устуворлиги, фуқароларнинг қонун олдида тенглиги муҳим бўлиб, ўз иш фаолиятларини қонун доирасида амалга ошириши зарур.

Раҳбар ХОЛИҚОВА,
тарих фанлари доктори, профессор.
ЎзА.

«Balli, qizlar!»

Xalqaro xotin-qizlar kuni bayramiga bag`ishlab maktabimizning 4-«B» sinfida «Balli, qizlar!» ko`rik-tanlovi bo`lib o`tdi. Tadbirda 8 nafar qizimiz 5 ta shart bo`yicha bellashdi.

Quvnoq va ziyrak qizlarimiz tanlovda juda faol qatnashib, barcha ustozlar va o`quvchilar olqishlariga sazovor bo`lishdi. Tadbir so`ngida barcha qatnashchilar ota-onalar va sinf rahbari tomonidan rag`batlantirildi.

Nasiba IRALIYEVA,
41-maktabning boshlang`ich sinf o`qituvchisi.
Suratda: *tanlov ishtirokchilari ustozlari bilan.*

Tavalludining 122 yilligi oldidan

G‘afur G‘ulom asarlarida axloqiy masalalar

G‘afur G‘ulom o‘zbek adabiyotining zabardast vakili bo‘lib, o‘z ijodiy faoliyatida ko‘plab hikoya, she’r, qissa, pyessa va dostonlar yaratgan ijodkor hisoblanadi. Uning qoldirgan asarlari hali-hanuzgacha kitobxonlar qo‘lidan tushmay o‘qib kelinmoqda. G‘afur G‘ulom o‘zining ijodi bilan butun o‘zbek xalqining yuragidan joy egallagan. Uning asarlari o‘zida turli xil qadriyatlarni va milliylik ruhini aks ettirgani bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Ya’ni G‘afur G‘ulom asarlarida biz axloqiy masalalar yoki ijtimoiy adolat kabi g‘oyalarni ilgari surilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Adib asarlaridan biz o‘sha davr odamlarining ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida ma’lumot olishimiz mumkin. Xususan, adibning “Chorbozchi” hikoyasida Ahmad Sedab obrazi salbiy obraz sifatida tasvirlangan. Chunki u bitta kasbda qanoat qilmaydigan, faqat qayerda pul ko‘p bo‘lsa, o‘sha kasb bilan shug‘ullanadigan inson sifatida gavdalantirilgan.

Ushbu hikoyada Ahmad Sedab obrazi pulga o‘ch va pul uchun har qanday narsani qilishga tayyor inson ekanligi va bu yo‘lda ko‘plab yolg‘on ishlatishi ham tasvirlangan. Bunday insonni tasvirlash orqali adib ushbu ikki axloqiy masalani ko‘targanligi yaqqol seziladi. Ya’ni nafs yo‘lida har qanday ishni bajarishga tayyor inson bo‘lish yoki topayotgan puliga qanoat qilmaslik o‘zbek jamiyatida qoralanishi, zero insonlarni halollika, to‘g‘riso‘zlikka va insofli bo‘lish kabi qadriyatlar ulug‘lanadi. Shu sababli adib tomonidan kitobxonlarga Ahmad Sedab obrazidagi bu harakatlar bevosita yaxshi emasligini yetkazish maqsadida yoritib berilgan.

Ushbu obrazni tahlil qiladigan bo‘lsak, Ahmad Sedab inqilob davrigacha boshqa kasbda ishlagan ammo keyin pul qaysi kasbda ko‘p ko‘rinsa o‘sha bilan shug‘ullangan. U kiyim-kechak ham, shirinlik ham sotib ko‘radi va oxirida pulni shunchalik yaxshi ko‘rganligi uchun hatto o‘g‘irlik ham qilganligini ko‘rish mumkin.

U savdogarlik qilgan davrida o‘zining mahsulotini sotish uchun kelgan xaridorlarga ko‘plab yolg‘on gapiradi. Masalan, birorta xaridor shim sotib olgani kelganda, unga mahsulotini sotish uchun bu shimni qadimdan qolgan shim deb qimmat narxda sotishga harakat qiladi. Asar oxirida Ahmad Sedab nafsi yo‘lida hatto o‘g‘irlik yo‘lidan ham qaytmaganini va buning natijasida kaltaklanib o‘lishiga oz qoladi. Ya’ni bu yerda bu kasbni tanlagani uchun jazosini olganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu orqali adib yovuzlik yoki yomon odatlar hech qachon insonga yaxshilik keltirmasligini, harom yo‘l bilan topilgan pul ta’timasligini ta’kidlamoqchi bo‘lgan va bu orqali odamlarni yaxshi inson bo‘lishga va yaxshiliklar qilishga, doimo halol va insofli bo‘lishga chaqirgan.

Yozuvchi tomonidan “Farzandi solih” hikoyasida ham axloqiy masalalar keng ochib berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Qissadagi qahramon darslarni va hattoki harflarni o‘rganishga juda ham qiynaladi. Ostonaquldagi zehn “burroligi” yetti yilda ham “Haftiyak”ning “sassi”sidan nari o‘tishga yo‘l qo‘ymaydi va bu holatdan so‘ng xafa bo‘lgan otasi uni bir kasbga o‘rgatmoqchi bo‘ladi va unga savdogarlik qilishni buyuradi. Unga to‘rt dona chachvon olib kelib, shularni bozorga olib chiqib sotib kelishni aytadi, vaholanki, u narsalarni sotib kelmadi, balki uni bir arzimas matoga almashtirib keladi. Bundan darg‘azab ota chuqur o‘yga berilib qoladi va shuni tushunib yetadiki, yoshlikdan farzand kerakli ilmni egallamas ekan, unga o‘rgatilmas ekan, kelajakda qiladigan ishida ham baraka bo‘lmaydi, oqni qoradan farqlay olmaydi.

Bundan tashqari asarda aytishimiz lozim bo‘lgan yana bir jihat – asar qahramoni Mulla Shashkol domla o‘g‘li Ostonaqulni savdogarlik qil deb bozorga jo‘natadi, ammo unga savdogarlik qilish yo‘l-yo‘riqlarini o‘rgatmaydi. Ya’ni o‘g‘lini shunchaki bozorga yuboradi, vaholanki, avval qanday savdogar bo‘lishi, nimalarga amal qilishi lozimligini, qanday savdogar bo‘lsa xaridorlari ko‘p bo‘lib mahsulotlarini tez sotishini tushuntirishi yoki o‘rgatishi zarur edi. Bir tomondan o‘ylab qaraganda, Ostonaqulni bunday holga tushishiga otasi ham sababchi deb o‘ylayman. Chunki unga yoshligidan ilmli bo‘lish va kasbga o‘rgatish bu otasining vazifasi edi, u o‘g‘lini yoshligidan to‘g‘ri tarbiya qilib, uni ilmga va mehnatsevar bo‘lishga undashi kerak edi.

G‘afur G‘ulom bu hikoya orqali yoshlar o‘z davri uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni egallamasa, ulg‘aygan vaqtda ham hech bir ishga qo‘li bormay, dangasalikka va hozirgi zamon bilan taqqoslab aytganda, turli xil yomon yo‘llarga kirib ketishlari mumkinligini nazarda tutgan. Bu hikoya orqali biz faqat uning yomon tomonlarini tahlil qilmoqchi emasmiz, shunchaki adiblarimizning asarlari biz uchun o‘rnak vazifasini o‘tab berishi turgan gap. Faqat uni tanqidiy tahlil qila olsak, tubanlikka tushib qolmaymiz.

Umuman olib qaraganda, G‘afur G‘ulom tomonidan yozilgan har bir qissa, hikoya, doston va hattoki she’rlarda ham insonga o‘rnak bo‘luvchi, uni to‘g‘ri yo‘lga tarbiyalovchi chuqur ma’no yotadi. Zotan, adibning asarlarini o‘qigan har bir kitobxon o‘yga toladi, chunki uning tagida aytilishi lozim bo‘lgan ko‘plab haqiqatlar va g‘oyalar mavjuddir. Buni anglash maqsadida yozuvchi kitobxon uchun turli xildagi obrazlar va turli vaziyatlarni yaratgan. Bu asarlarni o‘qish orqali insonlar o‘zlariga to‘g‘ri xulosa chiqarishlari va asarlardagi vaziyatlardan ibrat olishlari adib tomonidan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biridir.

Shu bois, G‘afur G‘ulom asarlarida, xususan, bu ikki hikoyada insonga zarur bo‘lgan axloqiy masalalar talqin qilingan. Jumladan, to‘g‘riso‘zlik, halol va adolatli bo‘lish, farzand tarbiyasi, ilmli bo‘lish va mehnatsevarlik kabi ulug‘ fazilatlar adibning ushbu ikki hikoyalaridan joy olgan asosiy masalalardir.

Yozuvchi tomonidan yaratilgan har bir hikoya, qissa va dostonlar kitobxonni to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalash va unga o‘rnak bo‘luvchi xislatlarni o‘zida jamlagandir. Bundan kelib chiqib, biz adibning asarlarini qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlashimiz joizdir. Chunki asarlarda ta’kidlangan bu fazilatlar hozirda jamiyatimizda har bir insonda bo‘lishi lozim bo‘lgan fazilatlardir. Ya’ni adib asarlari nafaqat o‘sha davr uchun, balki hozirgi zamon uchun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Elmira BOZOROVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 2-kurs talabasi.

Jamiyat illati

Biz giyohvandlikka qarshimiz, sog‘lom hayotni tanlaymiz

Bugungi kunda jamiyatimizning eng dolzarb muammolaridan biri giyohvandlikdir. Bu illat nafaqat insonning sog‘lig‘iga, balki uning oilasi, jamiyati va kelajagiga jiddiy zarar yetkazadi. Biz, yoshlar va butun jamiyat vakillari – giyohvandlikka qarshimiz va sog‘lom hayotni tanlaymiz!

Malumki, giyohvandlik – kelajakka tahdiddir. Zero, giyohvand moddalar inson organizmini asta-sekin yemiradi, aql va jismoniy salomatlikni zaiflashtiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, narkotik moddalar miyaga ta’sir qilib, xotirani pasaytiradi, qaror qabul qilish qobiliyatini buzadi va insonni ruhiy tushkunlikka olib keladi. Bundan tashqari, giyohvandlik jinoyatchilikning ortishiga sabab bo‘lishi, oilalarni parokanda qilishi va yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sog‘lom hayot – baxtli kelajak garovi hisoblanadi. Shunday ekan, giyohvandlikka qarshi kurashish uchun biz, avvalo, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishimiz kerak. Sport bilan

shug‘ullanish, kitob o‘qish, ilmga intilish va foydali mashg‘ulotlar bilan band bo‘lish giyohvandlikdan yiroq bo‘lishning eng yaxshi yo‘lidir. Hozirda mamlakatimizda yoshlar uchun turli sport musobaqalari, madaniy va ma’naviy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Har birimiz ushbu tadbirlarda faol ishtirok etib, sog‘lom hayot tarafdori ekanimizni namoyon qilishimiz kerak.

Jamiyatning burchi – giyohvandlikka qarshi keskin kurashishdir. Buning uchun giyohvandlikka qarshi kurashda oilaning, maktab va oliy o‘quv yurtlarining, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlarining o‘rni beqiyos. Ota-onalar farzandlari bilan ochiq muloqot olib borib, ularni giyohvand moddalar xavfidan ogohlantirishi lozim. Ta’lim muassasalari esa yoshlarni bilim va kasb-hunar egallashga yo‘naltirib, ularning kelajakda mustaqil va sog‘lom hayot kechirishiga ko‘maklashishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlik jamiyatimiz kelajagiga tahdid soluvchi eng xavfli illatlardan biridir. Biz har qanday ko‘rinishdagi giyohvandlikka qarshimiz va sog‘lom hayotni tanlaymiz! Har bir inson sog‘lig‘ini asrash, kelajagini o‘ylash va jamiyatning sog‘lom rivojlanishiga hissa qo‘shish uchun giyohvandlikdan yiroq bo‘lishi shart. Unutmaylik, sog‘lom hayot – baxtli va muvaffaqiyatli kelajak garovidir!

Faxriddin ALIMOV,
5-umumta`lim maktabining amaliyotchi psixologi.

Эртаклар – яхшиликка етаклар

Икки дўстнинг саёҳати

Бор эканда, йўқ экан, қадим ўтган замонда икки қўшни бўлган экан. Улар тенгдош ва жуда иноқ экан. Бу икки қўшниларнинг иноқлигига маҳалладаги барчанинг ҳаваси келар экан.

Кунларнинг бирида бу икки қўшни саёҳатга чиқмоқчи бўлишибди ва узоқ йўлга равона бўлишибди. Улар сафар халтасига йўлда керак бўладиган егуликларни олишибди.

Қўшнилар йўл юрибди, йўл юрса ҳам мўл юрибди. Йўл азобидан толиққан қўшнилар бир пас дам олмоқчи бўлиб, атрофга қарасалар, узоқдан бир дарахт кўринибди. Улар дарахт тагига бориб ором олишибди. Кун иссиқлигидан салқинда бир оз ўтириб тушлик қилиб олмоқчи бўлишибди ва улар йўл халтасидан нон сувларини чиқариб тамадди қилибдилар ва яна йўлда давом этибдилар.

Қўшнилар йўлда кетаётиб қудуқ қазиётган отахонни учратибдилар. Қўшнилар отахонга «Ассалому алайкум, ҳорманг» дейишди. Отахон ҳам «Ваалайкум ассалом» деб

жавоб қайтарибди «саломат бўлинглар, болаларим» дебди. Қўшнилар ҳол-аҳвол сўрашгач, отахонга ёрдам беришмоқчи бўлишибди. Отахон эса бундан жуда хурсанд бўлибди, «тарбия берган оталарингга минг раҳмат» дебди.

Отахон билан саёҳатчи қўшнилар бир оз дам олишибди. Қўшнилар отахондан сўрашибди: «Отахон, бу ердан қудуқ қазиганингизнинг сабаби нима?» Шунда Отахон жавоб қайтарибди: «Бу ердан йўловчилар кўп ўтишади. Менинг уйим эса анча узоқда. Ўтган йўловчилар сув сўраб боришади. Шунинг учун савоб олиш илинжида шу ишни қилаяпман. Сизлар ҳам энди савобга эга бўласизлар» дебди.

Улар қудуқни қазиб бўлибдилар. Шунда йўлдан ўтаётган йўловчилар қудуқ сувидан ичиб баҳраманд бўлибдилар ва раҳмат айтишибди. Қўшнилар эса Отахондан дуо олиб йўлида давом этибди.

Қўшниларнинг бу саёҳати қийинчиликларни бирга енгишга ва бир умрлик дўст бўлиб қолишига сабаб бўлибди. Шундай қилиб икки қўшнининг саёҳати хайрли якун топибди.

Муҳаббат ХУДОЙБЕРДИЕВА,
22-давлат мактабгача таълим ташкилоти тарбиячиси.

«Mohir qo‘llar» muvaffaqiyati

Bizning maktabimizga bahor fasli o’zgacha bir ifor bilan kutib olindi. Negaki, maktabimizda tashkil etilgan "Mohir qo‘llar" to’garagi qatnashchilari bilan oddiy xarajat talab qilmaydigan xomashyolardan go‘zal, bir-biridan jozibali, sovg’abob buyumlar tayyorladik.

Bu sovg’alardan maktab yarmarkasi tashkil qilib, shu asosda sotishni yo’lga qo’yish rejalashtirildi va bu maqsad go‘zal bir tarzda amalga oshirildi. Asosan bu sovg‘alar guldasta ko‘rinishida va suvenir sovg’achalar bo‘lib, guldastalarni yasash uchun biz qo‘l salfetkalaridan, oddiy tasmalardan, burmali gafriy qog’ozlardan foydalandik. Bularni yasash mobaynida issiq yelim va oddiy yelimdan foydalandik. Bundan tashqari biz munchoqlardan, toshlardan, yumshoq simlardan taqinchoqlar, qizlarimiz taqadigan abadoklar, ziraklar, bilak uzuklar yasadik.

Munchoqlardan to’qiladigan sumkalar, tillaqoshlar taqish kelinchaklarga hozirda urfga kirib bormoqda. Shu sababli bu ishni ham o‘quvchilarimiz bilan keng yo‘lga qo‘ydik. Yarmarkada shu mahsulotlarimizni ham sotuvga chiqardik. Bu sovg‘alarni Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami munosabati bilan o‘quvchilarimiz o‘z onalariga, opa-singillariga, ustozlariga sovg‘a qilish uchin xarid qilishdi. Yarmarka maktabimiz o‘qituvchi va o‘quvchilariga bayramoldi o‘zgacha bir kayfiyat ulashdi.

To‘garagimiz a`zolari o‘zlarining qobiliyatlari va mahoratlari tufayli "Barkamol avlod bolalari" festivalining tuman bosqichida "Munchoqli bezak" va "Robototexnika" yo‘nalishi bo‘yicha qatnashdilar. Ikkala yo‘nalishdan ham faxrli 1-o‘rinni olib, viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritishdi. Bundan tashqari viloyat televideniyasining "Munavvar kun" dasturiga taklif etildik. Bunda to‘garagimizning qobilyatli o‘quvchilari bilan yaratgan buyumlarimizni namoyish etishga muyassar bo‘ldik.

To‘garagimiz faollari: Ezoza Alimova, Navro‘zbek Xursanqulov, Sarvara Abduraxmonova, Sevinch Mustafoqulova, Dilnoza Zamonova, Megnixol Bekmurotova, Nurbek Rejabboyev, Elbek Allamurotov, Jonibek Dilmurotov, Bahora Ergashova, Albina Irgasheva, Zuhra Panjiyeva. Men to‘garak rahbari va ustoz sifatida o‘z o‘quvchilarim bilan faxrlanaman!

Shoira HAMROQULOVA,
2-maktabning texnologiya fani o‘qituvchisi.

Bolalar huquqlari

Qonun himoyasida

Mustaqil O‘zbekistonimizda bolalar huquqlariga katta e`tibor qaratilmoqda. Farzandlarimiz o‘qib bilim olishlari uchun davlatimiz rahbari tomonidan qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ularning bepul bilim olishlari mumkinligi Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan.

Yosh avlod billimli va ziyrak bo‘lar ekan, davlatimiz kundan-kun yanada yuksalib boraveradi. Bolalar bo‘sh vaqtlarida turli yot g‘oyalar ta`sirida qolmasliklari uchun ta’lim muassasalarida turli xil fan va kasb-hunar to‘garaklari tashkil etilmoqda. Xususan, tumanimizdagi 10-son bolalar musiqa va san’at maktabida tasviriy va amaliy san’at to‘garaklari mavjud. Bu to‘garaklarda 70 nafar o‘g‘il-qizlarimiz rassomlik, kashtachilik, zardo‘zlik yo‘nalishlarida o‘z kasbiy mahoratlarini oshirib kelmoqda. Bundan asosiy maqsad ularning kelajakda bir hunarni egasi bo‘lishiga o‘z hissamizni qo‘shishdan iborat. O‘quvchilarning kelib chiqishi, ota-onasining mavqeidan qat`i nazar ularga bir xil g‘amxo‘rlik ko‘rsatilyapti.

Nazokat SULTONOVA,
maktabning amaliy san’at o‘qituvchisi.

MUZRABOT
MUASSISLAR:
Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi va tuman hokimligi

Muharrir
Abdusalom YO`LDOSHEV

Tahririyat manzili:
191300. Muzrabot tumani, Xalqobod qo`rg`oni, Amir Temur ko`chasi, 38-uy.
Telefon: (+998) 99 671 57 58.

Gazeta 2010-yil 9-aprelda Surxondaryo viloyati Matbuot va axborot hududiy boshqarmasida 11-010 raqami bilan qayta ro`yxatga olingan. ISSN 2181–7006.
e-mail:shaymardonov8787@mail.ru
Buyurtma G- 2330 nusxada bosildi. Qog`oz bichimi A-2. Hajmi 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Nashr indeksi–473.

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi.
Sahifalovchi B.Shoymardonov. Navbatchi muharrir A.Yo‘ldoshev.
Navbatchi O.Hakimova.

Gazeta «Surxon tongi» va «Заря Сурхана» gazetalari tahririyati bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 190100, Termiz shahri, Shukrona ko‘chasi, 19-A uy.
Topshirish vaqti – 14-00. Topshirildi – 14-00